

FUNCTIONS OF LANGUAGE UNITS

Sharipov Bobur Salimovich

Teacher at the Department of Languages of the Samarkand State Medical Institute

Abstract. This thesis discusses the functions of linguistic units in language and speech. Linguistic units describe with phonemes, morphemes and syllables and the author's commentary on the opinions of linguists on this matter is given. It is claimed that a language is a very complex system, consisting of a set of small and large characters.

Keywords: phoneme, allophone, morpheme, allomorph, linguistic unit, language character

TIL BIRLIKARINING VAZIFALARI

Sharipov Bobur Salimovich

Samarqand davlat tibbiyot instituti

Tillar kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda til birliklarining tildagi va nutqdagi vazifalari xususida so'z boradi. Til birliklari sifatida fonema, morfema va so'z tavsif etilib, bu haqda tilshunoslarning fikrlariga munosabat bildiriladi. Tilning kichik va katta belgilar yig'indisidan tashkil topgan o'ta murakkab sistema ekanligi to'g'risida mulohaza bildiriladi.

Kalit so'zlar: *fonema, allofon, morfema, allomorf, til birligi, til belgisi.*

ФУНКЦИИ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ

Шарипов Бобур Салимович

Преподаватель кафедры Языков Самаркандского государственного медицинского института

Аннотация. Тезис посвящен функциям лингвистических единиц в языке и речи. Фонемы, морфемы и слоги описываются как языковые единицы и дается комментарий автора на мнений лингвистов по этому поводу. Утверждается, что язык - это очень сложная система, состоящая из маленьких и больших знаков.

Ключевые слова: фонема, аллофон, морфема, алломорф, языковая единица, языковой знак.

Turli vazifa va ma'nolariga ega bo'lgan til tizimining elementlari til birliklari deyiladi. Aslida, til birligi bilan uning belgisini farqlash zarur. Ammo umumiy planda element sifatida «*birlik*» terminini qo'llaymiz. Tilning asosiy birliklari jumlasiga *nutq tovushlari, morfemalar* va *so'zlarni* kiritamiz. Bulardan morfema va so'zlar til belgisi maqomida turadi. Lekin, negadir, ayrim tilshunoslar fonemani ham til belgisi sifatida tavsiflamoqdalar. Bu haqda B.N.Golovin shunday deydi: «...fonema mukammal bo'limgan elementar belgidir»[1.149]. Agar fonemaning ma'no anglatishdagi vazifasini e'tiborga olgan taqdirimizda ham uni belgi maqomiga ko'tarib bo'lmaydi. Zotan, fonemaning mustaqil holda ma'no kasb etmasligini izohlash shart emas, lekin uning o'zi ma'no bildirmasa-da morfema va so'zning tasarrufida ularning ma'nosini farqlovchi birlik sifatida xizmat qiladi. Shu bois unga belgi deb qarash noo'rindir. Fonema belgi bo'lganida edi, borliqdagi narsa va hodisalarning nomlarini fonemalar bilan atashimizga to'g'ri kelar edi.

Til birliklari til tizimining tegishli sathini tashkil etadi. Masalan, nutq tovushlari fonetik sathni, morfemalar morfemik sathni, so'zlar va frazeologik birliklar esa lug'aviy sathni. Bu bilan sath tushunchasi faqat til sistemasiga xos deb mulohaza yuritmaslik kerak. Sath tushunchasi nutq birliklari doirasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqda gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas va undan-da kattaroq bo'lgan birliklar sathi mavjuddir [2.29]. Shunday ekan, til insoniyat jamiyatida paydo bo'lgan, rivojlangan hamda

inson tushunchalari va fikrlarining butun majmuyini ifodalashga qodir bo‘lgan, tovushlar qobig‘iga o‘ralgan, belgilar sistemasidan tashkil topgan muloqot vositasidir.

Har bir tilning turli xil tovushlar yig‘indisi mavjud bo‘lib, ular oz sonli fonemalar bilan o‘z ifodasini topadi. Masalan, *tom* (uyning tomi), *tom* (kitobning jildi); *to‘r* (uyning to‘ri), *to‘r* (baliq ovlaydigan predmet); *aka* (<a> til oldi), *qalam* (<a> til orqa); *ajdar* (<j> sirg‘aluvchi), *jo‘ra* (<j> portlovchi). Ko‘rinadiki, tovushlar talaffuzda farqlansa ham, ularni ifodalovchi fonemalar tilda bir xil shakl orqali namoyon bo‘lmoqda. Boshqacha aytganda, xilma-xil tovushlar bir fonema ostida birlashadi. Nutqda tovushlar me’yoriy talaffuzdan chiqib ketsa, ularning variantdoshlari hosil bo‘lib, mazkur variantdoshlar *allofonlar* deb yuritiladi. Masalan, *bog‘cha – boxcha*, *булочная – булоинная* kabi. Ammo allofonlar sifat o‘zgarishiga olib kelmaydi. Jumladan, berilgan misollardagi fonlar o‘zgarishi so‘z ma’nosiga ta’sir etgani yo‘q. Shunday qilib, tovush nutq birligi bo‘lsa, fonema yuqori darajadagi mavhumligi bilan ajralib turuvchi til birligi hisoblanadi.

Tilning qismlarga parchalanmaydigan yana bir kichik birligi morfemadir. Ammo morfema lug‘aviy va grammatik ma’noga egaligi bilan belgi hisoblanadi. «Morfema» termini tilshunoslikka I.A.Boduen de Kurtene tomonidan kiritildi. Bu xususda olim shunday deydi: «Mazkur termin (morfema) so‘zning o‘zagi va barcha turdag‘i qo‘srimchalar uchun umumiyyidir»[3.291]. Tillarda morfemalar turli xil lug‘aviy hamda grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi va turli xil sintaktik vazifalarni ham bajaradi. Jumladan, rod, egalik, kelishik, zamon kabi kategoriyalar morfemalarning turlariga qarab belgilanadi. Yoki tillarning morfologik tasnifiga ko‘ra farqi morfemalar asosida aniqlanadi. Morfemalar so‘zga qo‘silib, yangi lug‘aviy ma’noni ham hosil qiladi. Ularning nutqda bajaradigan sintaktik vazifasiga kelsak, operator, monema kabi funksiyalarни bajaradi. Morfema ham fonema singari nutqda o‘z variantdoshiga ega bo‘lib, u *allomorph* deb ataladi. Morf bilan morfema har doim ham to‘g‘ri kelavermaydi. Masalan, rus tilidagi *книги*, *напыса*, *чтения*, *студенты* so‘zlaridagi -*u*, -*a*, -*я*, -*ы* kabi qo‘srimcha shaklidagi morfemalar ko‘plik shaklining turli formadagi ko‘rinishlaridir. Boshqacha aytganda, ko‘plik shaklini ifodalovchi qo‘srimcha bitta abo‘lsa-da, uning variantdoshlarining (allomorflarining) soni teng emas.

Pog‘ona jihatidan morfemaga nisbatan yuqori o‘rinni egallagan element so‘z hisoblanadi. So‘z tilning asosiy muhim, sintaktik mustaqil birligi bo‘lib, obyektlar, jarayonlar, xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladi. So‘z gap uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Gap bir so‘zdan iborat bo‘lishi ham mumkin. Ammo gapdan farqli ravishda nutq kontekstidan va nutqiy vaziyatdan tashqaridagi so‘z xabarni bildirmaydi. So‘z fonetik (uning tovush qobig‘i), morfologik (uni tashkil etuvchi morfemalar to‘plami) va semantik (uning ma’nolari to‘plami) majmuani birlashtiradi. So‘zning grammatik ma’nolari moddiy jihatdan uning grammatik shaklida mavjud. So‘zning qanday ma’no ifodalayotganini va sintagmatik qatorda qanday funksiya bajarayotganini nutqiy jarayonda aniq qo‘llanganidagina bilamiz. Shu bois so‘z orqli ifodalanayotgan lug‘aviy hamda leksik ma’nolarni farqlab o‘rganamiz. Masalan, *argon* so‘zini olaylik. Ushbu so‘z lug‘viy birlik sifatida zig‘ir, kanop kabilarning poyasi tolalaridan, ipdan yoki jundan eshib tayyorlangan, bog‘lash uchun ishlataladigan buyumni anglatadi. Ammo mazkur so‘z tabu nuqtayi nazaridan *ilon* ma’nosini bilan bog‘lanadi. Demak, so‘zning lug‘tda keltirilgan izohi lug‘aviy ma’no bo‘lib, uning nutqiy vaziyatda konkret qo‘llangan ma’nosini esa leksik ma’no deyiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak: «So‘z ma’nosizdir. Ma’no faqat u aniq qo‘llanganidagina hosil bo‘ladi», - degan edi A.Meye[4.215].

Shunday qilib, til birliklarining nutqda faollashuvi gapdan tortib, to katta matnlarni leksik-grammatik jihatdan shakllantirish jarayoni bilan bog‘liq. Bu vaziyatda, albatta, til birliklari ma’lum qonun-qoidaga bo‘ysungan holda faollashib, ularning ba’zilari o‘zlarining ma’nosini va shaklini saqlagan holda, ayrimlari esa o‘zaro munosabatga kirishib yangicha ko‘rinishda amalda qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar

- Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. -М.: Просвещение, 1979.
- Хайрullяев X.Z. Til birliklarining pog‘onali munosabati. -Toshkent: Fan, 2008.
- Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные работы по общему языкознанию. -Т.2. -М.: Изд-во АН СССР, 1963.
- Дрошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. -М.: Прогресс, 1973 (A.Meyening fikri mazkur asardan olindi).